

MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBALLASHUV ZIDDIYATLAR

Sanaqulova Lobar Hamidullo qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16719235>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'zbek adabiyotida ro'y bergan milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar, milliy an'analar, g'arb adabiyoti, internet davrining kirib kelishi va globallashuv ziddiyatlar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, tarixiy xotiralar, urf-odat, vatanparvarlik, globallashuv, shaxsiy erkinlik, texnika, milliy o'zlik.

Kirish: O'zbekiston o'z taraqqiyoti tarixining yangi davriga qadam qo'ydi. Jahon hamjamiyati "Yangi O'zbekiston" deya e'tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng ma'rifatli jamiyatni qaror toptirishning huquqiy asoslari shakllantirilmoqda. Mamlakatda aholi ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Hayotimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar tufayli odamlarning ongu tafakkuri o'zgarib bormoqda. Ayni vaqtda bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan mafkuraviy globallashuv tufayli milliy o'zlik va milliy g'ururning rivojiga, millatning intellektual, ma'naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlarining barham topishiga, inson tafakkur tarzi va dunyoqarashini toraytirishga, e'tiqodini, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani e'tirof etilmoqda. Milliy va an'anaviy umumbashariy qadriyatlar xiralashib, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, individual, korporativ va milliy xudbinlik kabi illatlar ildiz otmoqda. Bu kabi ayanchli holatlarning oldini olish uchun Yangi O'zbekistonni mustaqil tafakkur va sog'lom dunyoqarashga, yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotimizning muhim va jaralmas qismiga aylangan yangi davrda milliy o'zlikni 4 anglash va anglatish, milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlarga uyg'un ravishda asrash va rivojlantirib borishda oldingi ish uslubimiz kutilgan natijalarni bermayotgani tobora ayon bo'lmoqda. Ayniqsa, yangi avlodda moddiy va ma'naviy merosimizga bepisandlik, urf-odatlarimiz, ana'ana va qadriyatlarimizni eskilik namunasi talqin qilishi, yengil-yelpi hayot tarzini targ'ib qilayotgan xorijiy axborot manbalari ta'siriga tushib qolish holatlari tobora ustuvorlik kasb etayotgan bir davrda ming yillardan buyon halqimiz genofondida mustahkam o'rnashgan qadriga ega. Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilar ekan, biz hech shubhasiz bu fenomen hodisa quruq yerda, yo'q joyda yaratilmayotganini anglab yetishimiz lozim. Gap shundan iboratki, O'zbekiston qadim-qadimdan buyuk sivilizatsiyalar, jahon ahamiyatiga ega kashfiyotlar yurti hisoblanadi. Biz bekorga bunday kashfiyotlar yaratgan mutafakkir olimlarimiz bilan faxrlanmaymiz. Darhaqiqat, ming yillar davomida mamlakatimiz hududida yaratilgan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari keyinchalik jahon tamadduniga sezilarli hissa qo'shgan va bu hodisa jahon olimlari tomonidan keng e'tirof etilgan. Shu ma'noda bugungi kunda O'zbekistonda ma'rifatli 6 jamiyatni barpo etish maqsadi, jamiyat a'zolarini yaxshilik, ezgulik, insonparvarlik kabi fazilatlar sari yetaklaydigan g'oyalar mavjudligi aslida bizning boy milliy-madaniy merosimiz

borligidan darakdir. O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.

Asosiy qism: An'ana va urf-odat. O'tmish va kelajak. Ushbu tushunchalarning zaminida insonning o'zligini namoyon qilib turadigan ma'no mujassam. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida o'z ildiziga, vorisiylikka ega. Qadriyat insonlar uchun qadrlı, e'zozli bo'lgan narsalar, jarayonlardir. Qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirralı tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini ifodalasa, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi – baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra obyektiv (ashyoviy) va sub'ektiv (ong) qadriyatlari bir-biridan farqlanadi. Qadriyatning birinchi ko'rinishi, ya'ni ob'ektiv (ashyoviy) qadriyatlarga – tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari (yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi); mehnat mahsullarining iste'mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; tarixiy hodisalarning progressiv yoki reaksiyon ahamiyati; hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo'luvchi moziyning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati; kishilarning xatti-harakatlarida ifodalanuvchi axloqiy yaxshilik yoki yomonlik; tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarning hamda san'at asarlarining estetik estetik jihatdan tavsiflanishi. Milliy an'anaga asoslangan jamoatchilik qadriyatlari bilan shaxs erkinligi o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. Texnika va internet davri kirib keldi. Yozuvchilar yangi axbarot texnologiyalari ta'siridagi hayot tarzini o'z asarlarida tasvirlay boshladilar. Globballashuv jarayoni milliy qadriyatlarni asrash masalasini dolzarb qildi. Yozuvchilar asarlarida o'z ona tilini asrash unga g'arbona atamalar ta'siridan himoya qilish mavzusini ko'tardi. G'arbona hayot tarzi, boytlikka intilish kabi unsurlar adiblar tomonidan tanqid qilinadi. Omon Matjon, Usmon Azim, kabi ijodkorlarning asarlarida globballashuv tufayli inson qalbidagi ma'naviy inqiroz va qadriyatlar yo'qolib borishi mavzusi yoritildi.

Globballashuv sharoitida milliy qadriyatlarning salbiy ta'siri:

G'arbona turmush tarzi va iste'molchining madaniyatning tarqalishi ayrim milliy urf-odatlar va an'analarni zaiflashtirdi.

Xulosa: Jahon sivilizatsiyasi hozirgi globballashuv davrida siyosiy, iqtisodiy, diniy va ma'naviy ziddiyatlarga to'la. Katta davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat, tabiiy resurslar uchun kurash, milliy va diniy identifikatsiya masalalari, shuningdek, globballashuv va milliy qadriyatlar to'qnashuvi asosiy ziddiyat manbai bo'lib qolmoqda.

Globballashuv bir tomondan millatlararo madaniy almashinuv va taraqqiyotga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ayrim milliy qadriyatlarning yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois dunyo xalqlari o'z milliy an'alarini saqlash va uni rivojlantirish bo'yicha faol choralar ko'rmoqda (Yaponiyaning an'anaviy marosimlarni saqlashi, Fransiyaning til siyosati va h.k.).

Globballashuvning ijobiy tomonlari – ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, madaniy aloqalar kengayishi bo'lsa-da, u ko'pincha mahalliy xalqlarning tili, an'ansi va ma'naviy merosiga bosim o'tkazmoqda.

O'zbekiston misolida:

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar (Navro'z, milliy kiyimlar, xalq og'zaki ijodi) tiklandi;

Shu bilan birga, G'arbona hayot tarzi yoshlar ongiga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Shu sababli, bugungi kunda asosiy vazifa – milliy qadriyatlarni globallashuv oqimida saqlab qolish va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish.

Ziddiyatlar insoniyat rivojlanishining tabiiy qismi bo'lib, ularni butunlay yo'qotib bo'lmaydi, biroq to'g'ri boshqarish mumkin.

2. Milliy qadriyatlar – har bir xalqning ma'naviy poydevori, uni asrash milliy o'zlikni saqlash bilan barobardir.

3. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni himoya qilish davlat siyosati va madaniyat arboblarning asosiy vazifasidir.

4. Mustaqillik davrida yuzaga kelgan ziddiyatlar asta-sekinlik bilan hal etilib, bugungi kunda O'zbekiston barqaror rivojlanish va milliy o'zlikni tiklash yo'lidan bormoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Qosimov – Mustaqillik davri o'zbek adabiy jarayoni
2. Sh. Rashidov – O'zbekiston mustaqilligi va davlat qurilishi
3. M. Yo'ldoshev – O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichlari
4. JDPU ilmiy to'plami – Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar
5. Koshanova, N. M. (2023) _Milliy tarbiyani rivojlantirish globallashuv sharoitida_
6. Jabborova, D. (2022–23) _Jadidizm mustaqillik davrida: zamonaviy adabiy tadqiqot_
7. Zaripova, B. (2025) _National Identity and Independence in Uzbek Literature_
8. Hojimatov, M. (2025) _National Identity – National Poetry – National Independence_
9. Mamadaliyev, M. M. (2025) _National Traditions in Ethical-Aesthetic Development_
10. Ashurova, G. N. (2023) _Alisher Navoiy obrazining mustaqillik davri adabiyotida badiiy talqini